

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olingan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
№ 140 2024 yil "27" dekabr dagi
vazirining 485 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.



"Tarix"

yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

KIRISH

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik liseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning, O'zbekiston tarixida sovet davri, O'zbekiston mustaqillikka erishishi ostonasida, tarix fanini o'qitishda xorijiy pedagogik va ta'lim texnologiyalari modullarini o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

1.1. O'zbekiston tarixida sovet davri tarixini o'qitishning innovatsion usullari.

1.2. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

1.3. Tarix fanini o'qitishning zamonaviy metodlari.

1.4. Yakuniv nazorat.

Akademik liseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- bugungi zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy shakl-shamoyilni bilish;

Tuzuvchilar: Tayanch modullari: FarDU "O'zbekiston taxiri" kafedrasini dotsenti, t.f.d. B. Usmonov
FarDU "O'zbekiston taxiri" kafedrasini dotsenti, t.f.f.d. (PhD) S.Yo'ldoshev
FarDU "O'zbekiston taxiri" kafedrasini o'qituvchisi M.Boltaboyev

Taqrizchi: T.A.Egamberdiyeva-FarDU "O'zbekiston tarixi" kafedrası professori, p.f.d.

Xorijiy ekspert: G.Bobojonov nomli Xo'jand davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi F.A. Nazarov

O'quv dasturi Farg'ona davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqla qabul qilingan. (2024 yil " -sonli yig'ilish baynomomasi)

- keyingi o'n yilliklardagi faoliyatimizni belgilaydigan taraqqiyot tamoyillari va vazifalarning eng ustuvor va dolzarb jihatlari o'rganish;
- so'nggi yillarda qabul qilingan konsepsiya va harakat dasturlarida belgilangan ma'naviy-marifiy sohadagi islohotlarning samarasini oshirish;
- xalqimizning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni o'rganish;
- taraqqiyotning yangi bosqichi xususiyatlarini bilish;
- uchinchi RENESSANS poydevorini yaratish g'oyasini bilish;
- yangi demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- sovet tuzumi davrning o'ziga xos jihatlari, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarib borishini;
- tub siyosatning mazmun-mohiyatini;
- ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalaridagi o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan inergatsiyasi, tarixiylik va xolislik nuqtayi nazaridan O'zbekiston tarixi muammolarning ishlab chiqilishi jarayonlarini;
- O'zbekistonni mustaqillikka erishish tamoyillarini;
- amalga oshirilgan o'zgarishlarning tub mohiyat yo'nalishlarini;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilishni bilishni kerak.

Tinglovchi:

- fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish;
- ijtimoiy hayotning o'rta asrlarda va eng yangi tarix davridagi o'ziga xos xususiyatlarining mohiyatini tushunish;
- tarixiy bilishning o'ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari;
- tarix fanining kompleks xarakteriligi;
- fanga oid ko'rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikr olay olish;
- AQSH, Germaniya va Yaponiya olimlarining pedagogik texnologiyalarga bergan ta'rifi ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish;

- o'rganilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to'la baho berish;

- tahlil natijalari asosida vaziyatga to'g'ri va xolis baho berish;
- tarix fanidan olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lash;
- o'rganilayotgan tarixiy hodisa va jarayon to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

- bugungi kunda sovet tuzumi davri ta'limi jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqishni ortib borish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shakllida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

"TARIX" YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. O'ZBEKISTON TARIXIDA SOVET DAVRI TARIXINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.

Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishi va sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar. Rossiyada fevral inqilobi va uning Turkistonga ta'siri. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faollashuvi, "Turiston muxtoriyatining" tashkil etilishi. Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi va uning faoliyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. Mustabid tuzumning mustahkamlanishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekistonda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi. O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini qabul qilinishi. O'zbekiston ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945-yillar). Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, umumiy harbiy safarbarlik. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligini tinch rivojlantirish yo'lga o'tilishi, Respublika sanoatini rivojlantirish, uning bir yoqlamalik xususiyati. Qishloq

xo'jaligida amalga oshirilgan o'zgarishlar. Paxta yakkahokimligini mustahkamlashga qaratilgan harakatlar. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda madaniy-ma'naviy hayot. O'zbekistonda qatag'on siyosatining boshlanishi, uning sabablari va oqibatlari.

1.2. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR.

Yangi uy qurmasdan eskisini buzmag. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar. O'zbekistonda Prezident institutining joriy etilishi. I.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish. Mustaqillik deklaratsiyasi. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKCHP. Mustaqillik eng avvalo xalq birligi va hamjihatligidir. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston dunyo xaritasida o'ziga munosib joy oldi. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li.

1.3. TARIX FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI.

Hozirgi zamon jamiyatida ta'lim jarayonlarining rivojlanishi. Ta'lim sohasida pedagogik jarayonlarga texnologik nuqtai-nazardan yondashish. Tarix fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, texnologik yondashuv va o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish. Bugungi kunda tarix ta'limi jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqishni ortib borishi. Tarix o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarni oshirib borishi. Ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarin qo'llash ishlarini birinchi bor amalga oshirda xorij olimlari B.Blum, D.Kratvol, N.Granlund, Dj.Kerolla, Dj.Blok, L.Anderson va boshqalarning faoliyati. AQSH, Germaniya va Yaponiya olimlarining pedagogik texnologiyalarga bergan ta'riflari. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish asoslari.

1.4. Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori

natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishtidan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik liseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLARRO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: O'zbekiston, 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 2020.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" "O'zbekiston", 2021.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'QRQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi P rezidentining 2017-yil 26-sentyabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4740-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

16. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning gnomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9.

III. Maxsus adabiyotlar

17. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
18. Istoriya Uzbekistana. Toshkent: Fan, 2012.
19. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
20. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
21. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
22. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
23. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
24. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
25. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
26. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
27. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

28. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
29. <http://yedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
30. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
31. <http://lib.bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
32. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet

33. <http://natlib.uz>–Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
34. <https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo'limlar>
35. <https://www.goldenpages.uz/company/?id=2650>
36. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
36. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

"ISHLAB CHIQLGAN":

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Direktor: U.Sh.Begimkulov 2024-y. M.O.

"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i
F.T.Esanboyev 2024-y. M.O.



Farg'ona Davlat Universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muttitaqaviy markazi

Direktor: B.K.Baratov 2024-y. M.O.

